

AYOLLARDA SIYDIK AJRATISH TIZIMI KASALLIKLARINING
TA'SIRI

Iskandarov Asliddin Husniddin o'gli

"Nefrologiya gemodializ bilan" yo'nalishi ordinatori

Ilmiy raxbari: Qurbonov Nizom Azimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Dolzarbligi. So'nggi yillarda siydik tahlillarida patologik o'zgarishlar bo'lmaganida siydik ajratish buzilishi bilan kasallangan ayollar sonining ko'payishini ko'rsatadigan ko'plab ishlar paydo bo'ldi (Asadova, 2016; Xudoyarova D.R., 2020). Premenopauzal davrda urogenital kasalliklar ayollarning 10 foizida, 55-60 yoshda - 50 foizda va 75 yoshda - 60-65 foiz ayollarda uchraydi va 75 yoshdan keyin deyarli har bir ayolda siydik ajratish buzilishining individual belgilari aniqlanadi (A.N. Russkix, 2017).

Tadqiqot maqsadi: Ayollarda siydik ajratish tizimining kasalliklarini, aynan siydik tutaolmaslikni o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ish materiallari 2020-2022 yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universitetining urologiya kafedrasida premenopauzal yoshdagi 50 nafar ayollarning ma'lumotlarida o'rganildi. Tadqiqot usullari bemorlarni to'liq klinik va laboratoriya tekshiruvini bo'lib, relaksin-2 darajasi IFA usuli bilan hbaholandi; instrumental usullardan UTTdan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Siydik ajratish tizimining buzilishlari rivojlanishida muhim rol ni ekstragenital kasalliklar (EGK) chastotasi o'ynadi, barcha tekshirilgan ayollarda yuqori yuqumli indeks qayd etildi. Deyarli barcha ayollar anamnezida gripp holatlari va o'tkir respirator kasalliklar aniqlandi. Ayollarning aksariyati - 28 (56%) kamida 3 ta kasallikka duchor bo'lgan va ular surunkali kechish holatiga o'tgandi. Yana bir muhim omil - semirish, ayniqsa qorin sohasidagi semirish o'ta xavflidir. Semirib ketgan ayollar

odatdagi vaznli ayollarga qaraganda 4-5 marta ko'proq siydik tutolmaslik uchraydi. Semirib ketish chastotasi bizning ayollarda 36% ni tashkil etdi.

Ginekologik tarixni tahlil qilish uning sezilarli darajada og'irlashganini ko'rsatdi: yarmidan ko'pida kolpit (27-54%), hayz ko'rishning buzilishi 39 tasida (78%), jinsiy a'zolarning tushishi 43 (86%) nafarda, bachadon bo'yni eroziyasi 7 (14%) nafarda, bachadon miomasi 12 (24%) nafarda.

20 (40%) nafar bemorlar anamnezida 1-2 ta tug'ruq qayd etildi, 3 yoki undan ko'p tug'ruq 30 (60%) nafarda bo'lgan. Katta homila vazni ST bo'lgan ayollarning 40,0 foizida kuzatilgan. Ayollarda katta homilaning tug'ilishi tug'ruq kanali, tos bo'shlig'i mushaklari shikastlanishi bilan kechgan (RR = 2,23), oraliq sohasi yorilishlari paydo bo'lgan, bu esa keyinchalik ST rivojlanishi uchun xavf omili (RR = 3,2) hisoblanadi.

STni baholash va tashxislash uchun biz 3 turdagi sinamalardan foydalandik:

- Valsalva testi - ginekologik o'rindiqla to'la qovuqli holatda ayolni qattiq kuchanish so'raladi. Uretraning tashqi teshigi sohasida siydik tomchilari paydo bo'lsa, test ijobiy deb hisoblanadi. Ushbu test 36 (72%) nafar ayollarda ijobiy bo'ldi;

- yo'tal testi - ginekologik o'rindiqla to'la qovuqli holatda ayolga yo'talish taklif qilinadi. 35 (70%) nafar ayollarda yo'talayotganda siydik oqishi kuzatilib test ijobiy bo'ldi;

- taglik testi - taglikning og'irligi bir soatlik mashqdan keyin aniqlandi. Agar yostiqning og'irligi 1 g dan oshsa, siydik tutolmaslik paydo bo'lganini anglatadi. 41 (82%) nafar ayollarda testi ijobiy bo'ldi.

Relaksin-2 darajasi IFA diagnostikasi bilan aniqlandi, uning qiymatlari $0,36 \pm 0,02$ U/ml ($P < 0,001$) ni tashkil qildi. Premenopauzal davrdagi deyarli sog'lom ayollarda ST belgilari bo'lmagan va sinamalar manfiy bo'lganda, uning o'rtacha qiymati $1,3 \pm 0,1$ U / ml ni tashkil etdi. Relaksin-2 darajasining pasayishi bu ayollarning siydik chiqarishdan kelib chiqadigan kasalliklarga, ya'ni siydik tutolmaslikning rivojlanishiga moyilligini ko'rsatadi.

UTT da ayollarda surunkali endometrit, surunkali salpingoofarit va surunkali sistit belgilari aniqlandi. Bundan tashqari ayollarda kichik tos venalarining kengayishi va qovuq sohasi dopplerometrik ko'rsatkichlarida o'zgarishlar ham aniqlandi. Ushbu o'zgarishlar qovuqdagi metabolic o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

Xulosa. Ma'lumotlarga ko'ra, premenorpausal davrni siydik tutolmaslikning paydo bo'lishi uchun xavf omili deb hisoblash mumkin, chunki bu vaqtga kelib ayollarda ko'p sonli tug'ruqlar, og'irlashgan akusherlik tarixi bilan 86% holda jinsiy a'zolarining tushishi, yuqori yuqumli ko'rsatkich anamnez ham e'tiborni tortdi va tos a'zolarining yallig'lanish kasalliklari mavjudligi bilan tariflanadi. Ushbu yoshdagi ayollar genitourinar tizimi kasalliklari paydo bo'lishining oldini olish uchun muntazam ravishda tor mutaxassislarga tashrif buyurishlari kerak. Shu bilan birga ST rivojlangan ayollarda relaksin-2 miqdori kamayishi, UTT dagi dopplerometriyada qon aylanish ko'rsatkichlarining va nisbiy qarshiliklarning o'zgarishi ham qayd etildi. Bu o'zgarishlar ham siydik ajratish tizimi kasalliklari rivojlanishida o'z hissasini qo'shishi tabiiydir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахтамова Н. А. и др. Инновационный метод лечения хронической тазовой боли //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 12 (53). – С. 89-91.
2. Ахтамова Н. А., Наргиз Ш., Тилявова С. А. ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ЛЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ ТАЗОВОЙ БОЛИ //Re-health journal. – 2021. – №. 1 (9).
3. Амирзода Т. С., ШОПУЛОТОВ Ш. А. НЕДЕРЖАНИЕ МОЧИ И НЕУДЕРЖАНИЕ МОЧИ: КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 5.
4. ЗЕЙНИТДИНОВА З. А., РИЗАЕВ Ж. А., ОРИПОВ Ф. С. СТЕПЕНЬ ЦИТОЛОГИЧЕСКОГО ПОРАЖЕНИЯ ЭПИТЕЛИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ЩЕКИ ПРИ COVID-19 //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 2.
5. Закирова, Н., Туракулова, Ш., Эшматов, С., Хасанова, Д., Курбаниязова, В., & Нуридинова, Ш. (2017). Акушерские и перинатальные исходы беременности при артериальной гипотензии. Журнал проблемы биологии и медицины, (1 (93), 195–197.

6. АмировнаТИЛЯВОВА С., ХУДОЯРОВА Д. Р. РЕАЛИИ ВРЕМЕНИ. СИНДРОМ ГИПЕРАКТИВНОГО МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ И ПРЕМЕНОПАУЗА //БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ. – С. 25.
7. Тоджиева Н., Курбаниязова В. Эффективность применения пролонгированного режима комбинированных оральных контрацептивов при лечении гиперпластических процессов эндометрия //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 4 (91). – С. 93-96.
8. РИЗАЕВ Ж. А., АХРОРОВА М. Ш. Оценка особенностей изменения слизистой оболочки и состояния полости рта при covid-19 //Журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
9. РИЗАЕВ Ж. А. и др. ПРОЯВЛЕНИЯ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ SARS-COV-2 В ПОЛОСТИ РТА //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 2.
10. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. ИСХОДЫ БЕРЕМЕННОСТИ У ПАЦИЕНТОК С COVID-19 //Актуальные вопросы диагностики и лечения новой коронавирусной инфекции. – 2020. – С. 35-39.
11. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. IMPROVEMENT OF METHODS OF NATURAL FERTILITY RESTORATION IN WOMEN WITH INFERTILITY CAUSED BY ENDOMETRIOSIS //Здоровье, демография, экология финно-угорских народов. – 2020. – №. 4. – С. 53-55.
12. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. Возможности инновационного метода обучения–геймификация //Онтологические и социокультурные основания альтернативного проекта глобализации.— Екатеринбург, 2021. – 2021. – С. 361-364.
13. Худоярова Д. Р., Шавкатова Г. Ш. ЭНДОМЕТРИЙ ПОЛИПЛАРИНИ ТАШХИСЛАШ ВА ДАВОЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЖИҲАТЛАРИ.
14. Шавкатова Г. Ш., Худоярова Д. Р., Абдуллаева Н. Н. МЕТАБОЛИЧЕСКИЙ СИНДРОМ И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО КОРРЕКЦИИ
15. Askarova F. K., Yakhshinorov I. N. Risk Factors and Recommendations for the Treatment of Anemia in Pregnant Women (Literature Review) //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 190-193.
16. Askarova F. K. The Negative Impact of Vitamin D and Other Micronutrient Deficiencies in Pregnant Women //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 380-382.

17. ISKANDAROVNA T. N., RAKHIMOVNA K. D. RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF ENDOMETRIAL HYPERPLASTIC PROCESSES IN PREMENOPAUSE //БИМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ. – С. 72.
18. Tilyavova S. A., Karimova G. S. Realities Of Time. Chronic Gender Inflammation And Pelvic Pain //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 03. – С. 2020.
19. Todjiyeva N., Vohidov S., Rajabov A. ENDOMETRIUM AND ITS HYPERPLASTIC PROCESSES //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 355-359.
20. Shavkatova G. S., Xudoyarova D. R., Shopulotova Z. A. Metabolik sindrom-zamonaviy jamiyatning muammosi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 486-491.
21. Shavkatovna S. G., Rakhimovna K. D., Khudoyarova D. R. STUDY AND TREATMENT OF THE ORIGINS OF OBESITY IN PREGNANT WOMEN //Next Scientists Conferences. – 2022. – С. 46-51.